

“JAJMAN” VA “QO‘L” HIKOYALARIDAGI RAMZIY OBRAZLAR TASVIRI

Karimova Farog‘at Kaxramon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbekiston, Toshkent
e-mail: farogatkirimova1628@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning bozor mavzusiga bag‘ishlangan “Jajman” va Nazar Eshonqulning birovning rizqiga ko‘z olaytiradigan egasiz “Qo‘l” hikoyalari tahlil ostiga olinadi. Bundan tashqari ramziy obrazlarning metaforik talqini va jamiyatdagi insonlarning nafsi haqida ham gap ketadi.

Kalit so‘zlar: *jajman, qo‘l, nafs, bozor, tim, ramz*

Abstract: This article analyzes the stories of Khurshid Do‘stmuhammad’s “Jajman” dedicated to the market and Nazar Eshonqul’s “Hand” without an owner who earns the livelihood of others. In addition, the metaphorical interpretation of symbolic images and the desire of people in society are also discussed.

Keywords: *jajman, hand, desire, bazaar, tim, symbol*

Har bir ijodkorning o‘ziga xos uslubi va o‘z tafakkur tarzi bor. Shular asnosida takrorlanmas individual asar yaratiladi. XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida Xurshid Do‘stmuhhammadning “Jajman” va Nazar Eshonqulning “Qo‘l” hikoyalari ham o‘zgacha yangi uslubda yozilib yuqori baholangan asarlar hisoblanadi. Barchamizga ma’lumki, nafsni tiyish, o‘g‘irlik va ularning oqibatlari haqida shu kungacha ko‘p ta’kidlanadi. Bu xususda Abdulloh Manozil “Vaqtarning yaxshirog‘i nafs senga g‘olib bo‘lmagan vaqtdir, vaqtarning yomonrog‘i nafs senga g‘olib bo‘lgan vaqtdir.”⁵⁶ deydi. Buni “Jajman” va “Qo‘l” hikoyalari asosida tahlil qilib ko‘ramiz.

Avvalo hikoyaning sarlavhasiga to‘xtalsak. Jajman so‘zining o‘ziyoq o‘quvchini o‘ylantirib qo‘yadi. Jajman o‘zi nima? Xurshid Do‘stmuhammad bir intervusida shunday degan: – “Jajman so‘zining izohiga kelsak, adabiy uchrashuvlarda, gurunglarda muhlislar shu savolni ko‘p berishadi. Ammo men har gal javobsiz qoldirganman. Bu – mening sirim, hikoyaning jozibasi shunda. O‘quvchi o‘zi o‘ylab topsin.”⁵⁷ Bundan kelib chiqadiki, o‘quvchi hikoyani o‘qish davomida jajman nima ekanligini va qanday ramziy ma’noda kelganligini o‘zi tushunib yetadi. O‘ziga xos uslubda yozilgan asarni har bir kitobxon o‘zicha tushunib tahlil qiladi. Hikoyaning o‘zi ham hammaga tushunarli qilib sodda tilda yozilgan.

Jajman obrazining qanday paydo bo‘lganligi haqida Xurshid Do‘stmuhammad yoshlar bilan bo‘lgan online suhbatida aytib o‘tgan: “– “Jajman” hikoyasining tug‘ilish tarixi bor.

⁵⁶ <https://www.hikmatlar.uz/quote/1409>[27.10.2024]

Toshkent shahridagi “Chorsu” bozorini ko‘pchilik yaxshi biladi. Bizning uyimiz shunga yaqin bo‘lganligi uchun “Chorsu”ga ko‘p qatnaganman. U yerda bir “Tim” degan joy bo‘lardi.

U “Tim”lar hozir buzilib ketdi. Baland, tepasi oynavand. Ikki tomonida katta-katta darvozasi bo‘lardi. Bu “Tim”ning ichida turshak, mayiz, jiyda, yong‘oq – shunga o‘xshash quritilgan mevalar sotilgan. Har safar bozorga kelganimda birinchi bo‘lib kitob do‘koniga, undan keyin, albatta o‘sha “Tim”ga kirardim. “Tim” qandaydir sehrli maskandek tuyulgan menga.

Shu yerda tirikchilik qilayotgan, savdo qilayotgan odamlar, nazarimda, boshqacha ko‘rinardi-da. Bir kun ko‘zim tushib qoldi. Bir ayol turshak sotayotgan ekan, bir odam qo‘lidagi qog‘oz xaltani to‘ldirib turshak oldi-da, pulini to‘lamay ketdi. Ayol yig‘lab yubordi. “Bolalarining rizqini qirqib olib kelgandim, ro‘zg‘orimga ishlatarmikanman degandim”, deb yig‘ladi. Menga shu narsa juda og‘ir botdi. Bozorda bunday manzaralar uchrab turadi. Oradan yillar o‘tdi, o‘sha xotira turtkisida “Jajman” obrazi paydo bo‘ldi.”⁵⁸ Timda paydo bo‘lgan bu hayvon insondagi barcha salbiy xususiyatlarni o‘zida namoyon etadi. Ya’ni bosqinchilik, birovni haqqidan qo‘rqlaslik, o‘g‘rilik, nafs. Uni qanday hayvon ekanligini hech kim bilmaydi. U xuddi insonlarning jirkanch qiyofasini o‘zida namoyish etib shu bilan asarning metaforik maqsadini ochib bergandek.

Asarda barcha voqealar bozorda sodir bo‘ladi. Bozor deganda barchamiz savdogar va xaridorni, narsalar qilib taxlab qoyilgan rastalarni ko‘z oldimizga keltiramiz. Lekin Xurshid Do’stmuhammad buni boshqacharoq ifodalaydi. “Jajman” asarida bozorni butun bir jamiyat deb hisoblasak boladi.

Jajman nomli hayvonning paydo bo‘lishi bejizga emas. Adib bu bilan odamlarning o‘zlarini ichidagi salbiy illatlarni namoyish qilmoqchi bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Insonlarning ichidagi nafs degan baloni yo‘q qilib bo‘lmaydi. Buni hikoya davomida qancha yesa ham to‘ymay kattalashib borgan jajman timsolida ko‘rishimiz mumkin. Asarda qahramonlarning ruhiy kechinmalari va ijtimoiy vaziyatlar ta’siridagi holatlari ham yoritib berilgan.

“Yaxshi she’ni gapirib berib bo‘lmaydi.

Uni faqat chuqur his qilish mumkin va ruhshunos kabi tushunish, tahlil qilish mumkin. Xuddi shunday asar yaratishda ham voqealarni shundayligicha kitobxonga bayon qilib bo‘lmaydi. Nazar Eshonqul hikoyalarni kuzatib turib bunga yanada ishonch hosil qilasiz. Uning ijodini deyarli har bir tafsiloti ramz va timsollar bilan boyitilgan. Bu bilan u yaratgan personajlarni tushunish va ularni his qilish yanada osonlashadi.”⁵⁹

Faraz qiling, uyingizda bir yeb to‘ymas sherik paydo bo‘ldi. Bir deganda ikki uchta odamning ovqatini ko‘rdim demay yeyabdi.

⁵⁸ “Kitobni anglab, tushunib mutolaa qilish lozim” | yoshlikjurnali.uz

<https://yoshlikjurnali.uz/suhbat/kitobni-anglab-tushunib-mutolaa-qilish-lozim/> [27.10.2024]

⁵⁹ Psixologizm va psixologik tahlil (X.Do’stmuhammad va N.Eshonqul hikoyalari misolida)/Bitiruv malakaviy ishi.2019. -B.58



O'zingiz ham zo'rga kun kechiriyapsiz. Bu tekintamoqni haydashingiz kerak. Har xil chora qilib ko'ryapsiz. Lekin siz ojizsiz. Bu juda qiyin vaziyat. Zamoniyy o'zbek adabiyotining namoyondalaridan biri Nazar Eshonqulning "Qo'l" nomli hikoyasida aynan shu vaziyat ko'rsatib berilgan. Hikoyani siyosiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, muallif hokimiyat tepasidagi boshqalarning rizqiga ko'z olaytiradigan egasiz qo'llarni aytgandek. Tegirmonchi bu egali qo'llarni to'ydiraman deb anchagina harajat qildi. Aslida, egasiz qo'ldan emas, jamiyatdagi egali qo'llardan qo'rqish kerak. "Hozirgi davrimizda ham egali-yu egasiz qo'llar atrofimizda to'lib yetibdi.

Qaysidir "xalq jonkuyarlari" kursisida o'tirgan holatda tovog'imizga qo'l cho'zishdan ta'b tortmayapti. U qo'llarning egasini biz bilolmaymiz. Ular o'zlarini yashirishda egali qo'llardan foydalanadilar. Korrupsiya, ta'magirlilik, har bir sohadagi nohaqliklar o'sha qo'llarning badnafsligidan, ochko'zligidan kelib chiqadi. Unday nokas qo'llarni bиринчи cho'zilganidayoq birlashib yo'qotmasak, o'z haqqimizni himoya qilmasak, atrofimizdagi insonlar uchrayotgan nohaqliklarga beparvo bo'lsak, keyinchalik bu "qo'llar" qarshisida ojizga aylanamiz.

Og'zimizdagi oshni olishsa ham jim qotib qolaveramiz.⁶⁰ Xurshid Do'stmuhammad "Qo'l" hikoyasida psixologik usullarni, ichki monolog va tasvirlarni chuqur ishlataladi. Nazar Eshonqulning "Jajman" hikoyasida esa ko'proq ijtimoiy masalalar yoritiladi va tasvir ham ijtimoiy kontekstda yaratiladi. Ikkala asarda ham jamiyatdagi odamlar qo'l va jajmanga qarshi kurashishadi Jajmanning ham egasiz qo'lning ham sheriklari anchagina ko'payib ketadi. Va oxir oqibat insonlar baribir taslim bo'lib ko'nikishga majbur bo'ladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xurshid Do'stmuhammadning "Qo'l" va Nazar Eshonqulning "Jajman" hikoyalari o'zbek adabiyotining yorqin namunalaridan bolib, inson ruhiyati, hayotning murakkabligi haqida chuqur fikrlashga undaydi. Agar hikoyalarning yakunida jajman va qo'l yo'q qilinganda ayrim kishilar tekinxo'rlik va nafsibuzuqlikn tamoman yo'q qilish mumkin deb o'ylashgan bo'lar edi. Lekin bunday odamlar ko'paysa ko'payadiki aslo yo'q bo'lmaydi. Shuning uchun bu hikoyalardagi ko'tarilgan mavzular har doim dolzarb va doimiy bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazar Eshonqul. Saylanma. "Qo'l". -Toshkent: I-jild
2. Xurshid Do'stmuhammad . "Jajman". -Toshkent: 1997. -B.8
3. Adabiyotda kashfiyot bo'lmasa... (Yozuvchi bilan suhbat) | Xurshid Davron kutubxonasi/<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/xurshid-dostmuhammad-jajman-hikoya.html>

⁶⁰ <https://demokrat.uz/2024/02/10/qol-birovning-halol-oshiga-choziladigan-harom-qollar-haqida-hikoya> [30.10.2024]



- 
4. Kitobni anglab, tushunib mutolaa qilish lozim” /yoshlar bilan online suhbat./ yoshlikjurnali.uz <https://yoshlikjurnali.uz/suhbat/kitobni-anglab-tushunib-mutolaa-qilish-lozim/>
 5. Psixologizm va psixologik tahlil (X.Do'stmuhammad va N.Eshonqul hikoyalari misolida)/Bitiruv malakaviy ishi.2019. -B.58
 6. <https://www.hikmatlar.uz/quote/1409>
 7. <https://demokrat.uz/2024/02/10/qol-birovning-halol-oshiga-choziladigan-harom-qollar-haqida-hikoya>

